

## NAVOIYNING ORIFONA G‘AZALI

**Muzayyana Ilhomjon qizi Sobirova,**  
**Qo‘qon DPI talabasi**  
[sobirovamuzayyana68@gmail.com](mailto:sobirovamuzayyana68@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin namoyondasi mutafakkir shoir Alisher Navoiyning badiiy-ma’rifiy g‘azallaridan biri tahlil qilingan bo‘lib, unda g‘azal nasriy bayoni hamda sharhi berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *She’riyat, ma’rifat, ta’rif, mumtoz adabiyot, badiiy-ma’rifiy g‘azallar, zohiriylar, jannat, mohiyat, ko‘ngil.*

### АННОТАЦИЯ

Эта статья посвящена анализу одной из художественно-просветительских Газелей поэта-мыслителя Алишера Навои, яркого представителя узбекской классической литературы, с прозаическим изложением и комментарием к газели.

**Ключевые слова:** Пoesия, просвещение, определение, классическая литература, художественно-просветительские газели, кажущийся смысл, мыслители, рай, сущность, душа.

### ABSTRACT

*This article is devoted to the analysis of one of the artistic and educational Ghazals of the poet-thinker Alisher Navoi, a bright representative of Uzbek classical literature, with a prosaic exposition and commentary on the ghazal.*

**Keywords:** Poetry, enlightenment, definition, classical literature, artistic and educational gazelles, apparent meaning, thinkers, paradise, essence, soul.

“Adabiyot chin ma’nosi ila o‘lgan, so‘ngan qaralgan, o‘chgan, majruh, yarador ko‘ngilga ruh bermak uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o‘tkir yurak kirlarini yuvadurg‘on toza ma’rifat suvi, hiralashgan oynalarimizni yorug‘ va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to‘lgan ko‘zlarimizni artub tozalaydurg‘on buloq suvi bo‘lganlikdan bizga g‘oyat kerakdur” [3, 94], -- deb yozgan edi ulug‘ shoirimiz Abdulhamid Cho‘lpon.

Menimcha, Hazrat Navoiy she’riyati haqida ham shunday ta’rifni qo‘llash mumkin. “Besh asrdan ortiq muddatda o‘z shukuhini yo‘qotmay kelayotgan bu

she'riyat ehromi (Navoiy she'riyati – ta'kid bizniki, M.S.) yana ko‘p mingyilliklar insoniyatni ezgulikka, haqiqat va go‘zallikka chorlovchi mayoq bo‘lishiga zarra shubha yo‘q” [1, 3].

Ma’lumki, mumtoz adabiyotimizda badiiy-ma’rifiy g‘azallar juda ko‘p va ularni tushunish va tushuntirish ancha mushkul. Ma’rifiy-targ‘ibiy yo‘nalishda yozilgan g‘azallar esa (ular ko‘pincha hikmatlar deb yuritiladi) mazmun jihatidan ancha sodda bo‘lib, ularda ramziy tizim so‘zlaridan ko‘ra ko‘proq so‘zlarni o‘z ma’nosida qo‘llash ustunlik qiladi. Bunday g‘azallarda har bir narsa to‘ppa-to‘g‘ri o‘z nomi bilan atalib kelinadi. Badiiy-ma’rifiy g‘azallar esa buning aksi bo‘lib, ular g‘oyat murakkabdir. O‘sha satrlar zamirida pinhon kelgan ma’rifiy g‘oyani ilg‘ab olish, orifning bu g‘azalni yozishdan ko‘zlagan maqsadini anglash esa ancha qiyin kechadi. Zero, bunday asarlar zohiriyligi ma’nolariga ko‘ra, asosan, ishqiy (intim, lirik) yoki rindiy (mayin kuylash) mazmunida bo‘ladi. Mana shunday ishqiy va rindona, hodisaviy (zohiriyligi) ma’nolar ostida qanday ma’rifiy ma’noning yotganini ochish she’r ixlosmandidan maxsus bilimlarni ham talab qiladi. Bu kabi g‘azallar ustida to‘xtalar ekanmiz, biz Alisher Navoiy ijodlariga murojaat etamiz. Bizning bunday istagimiz esa besabab ham emas. Chunki, birinchidan, Mir Alisher Navoiy o‘zbek g‘azalchiligi tarixida, o‘z badiiy ijodi misolida o‘shanday yo‘nalishdagi g‘azallar mazmunini tubdan isloh etdi va fors-tojik adabiyoti g‘azalchiligi an’alariga ham jiddiy tahrirlar kiritdi. Shundan bo‘lsa kerak, turkiy tilli badiiy-ma’rifiy g‘azallar forsiyda ijod qilingan shu yo‘nalishdagi she’rlardan birmuncha farq qiladi. Ikkinchidan, Mir Alisher Navoiy ijodidan keyin barcha turkiygo‘y xalqlar badiiy so‘z san’ati bobida ulug‘ o‘zbek shoirini o‘zlariga ustoz deb bilishi muayyan an’ana tusini ola bordi. Shuning uchun Alisher Navoiy ma’naviy merosi boshqa turkiynavislarning ijodini tushunish uchun ham asrlar davomida kalit vazifasini o‘tab kelgan. Shu bois biz ham ushbu maqolada Hazrat Alisher Navoiyning orifona g‘azallaridan birini baholi qudrat tahlil etishga jazm etdik. Mazkur maqsadda mutafakkir shoirning “Badoyi’ ul-bidoya” devoniga kiritilgan “Tilab jannatni o‘tmon do‘st ko‘yida gadolig‘din” deb boshlanuvchi g‘azalini oldik. E’tiboringizga ushbu g‘azalning nasriy bayoni hamda sharhi havola etildi.

### **“Badoyi’ ul-bidoya” девони, 604-г‘азал.**

*Tilab jannatni o‘tmon do‘st ko‘yida gadolig‘din,  
Muhaqqar bog‘ uchun kechmak bo‘lurmu podsholig‘din.*

*Bo‘lub begona ul may dog‘i to hirqamdadur bildim,  
Ki dog‘i hajr emish oxir natija oshnolig‘din.*

*Firoqing ichra qolg‘och, o ‘lmakimga qilma hayratkim,  
O ‘lumdin o ‘zga ish yo ‘q, jismg‘a jondin judolig ‘din.*

*Ajoyib ibtilodir bandi zulfing ichra jonlarg‘a  
Ki bor o ‘lmakcha bir soat najot ul mubtalolig ‘din.*

*Jahon sho ‘xinki, el mahbubudir, aqd aylading, lekin  
Taammul qilki, ne lozim kelur bu kadxudolig ‘din.*

*Yorut may lam’asidin xilvatimni bir kun ey mug‘kim,  
Yorug‘lig‘ topmadim xilvatda yillar porsolig ‘din.*

*Ko ‘zum andoq qorarmish tiyra zuhd ichraki,  
Demon may tutsa, zahr ichkaymen ani ko ‘z qarolig ‘din.*

*Bu gulshan g‘unchasida jola ermaskim tish irjaytib,  
Kular oshufta bulbul navhasig‘a benavolig ‘din.*

*Navoiy benavoliq shevasin berma ilikdinkim,  
Navo har kimki istabdur, topibdur benavolig ‘din [2, 470-471].*

### Lug‘at:

1. Muhaqqar – tor, kichik
2. O‘tmon – o‘tmayman
3. Hirqa – darvesh kiyimi
4. Ibtilo – balolar
5. Aqd – bog‘lanish
6. Taammul – o‘ylab ko‘rish
7. Kadxudolik – uylanish
8. Mug‘ – mayfurush
9. Porsolig‘ – dindorlik
10. Tiyra – qora
11. Jola – shudring
12. Zuhd – zohid- taqvo qilish
13. Navha – nola
14. Lam‘a – shu’la

**G‘azal vazni:**

Hazaji musammani solim

V --- | V --- | V --- | V ---

V ---| V --- | V --- |V ---

**Mafoiyun, mafoiyun, mafoiyun, mafoiyun.****Nasriy bayoni:**

\* Jannatni tilab (istab) yaratganning ko‘yida gado bo‘lishdan o‘tmayman (voz kechmayman). Axir, tor, kichik bog‘ uchun ham podsholikdan voz kechadimi?

\* Begona bo‘lib u mayning dog‘i o‘z hirqamdaligini bildim. Bu oshiqlikning oxiri, natijasi yana hajr ekan.

\* Sendan ayrilgach, o‘lishimga hayratlanma, zero, jism jondan judo bo‘lgach, uning o‘limdan boshqa ishi bo‘lmaydi.

\* Jonlar sening zulfling ichida asirlikka mubtalo bo‘lgan. Shunisi ajoyibki, bir soat bu mubtalolig‘din qutilish o‘lim kabidir.

\* Jahon sho‘xi (dunyo go‘zali) elning do‘stidir, sen unga bog‘lanib qolding. Lekin, chuqur fikr qilki, bunday bog‘lanishdan senga nima naf?

\* Ey mayfurush, mayning shu‘lasi bilan mening xilvatimni bir soatgina yorit, men yillar xilvatda taqvo, ibodat qilib, bunday dindorlikdan yorug‘lik topmadim.

\* Xilvatda toat qilib, ko‘zum shunday qoraymishki, Agar soqiylar may bersa, ko‘zim qorayganidan zahar ichdim, deyman.

\* Bu gulshan g‘unchasi yuzidagi shudring emas, balki g‘unchaning oshiqlig bulbul nolasiga irjayib kulayotgan tishlaridir.

\* Ey, Navoiy, faqrlik odatini zinhor qo‘lingdan bermaki, zero har kim faqirlik (ulug‘lik) izlagan bo‘lsa, uni benavolikdan topgan.

**Sharh:**

G‘azal aruzning Hazaji musammani solim vaznida yozilgan bo‘lib, Navoiy orifona g‘azallarining eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. 9 baytdan iborat bu g‘azalda tasavvufning ba’zi muhim masalalari yoritilgan. G‘azal matla’sida gadoga bu o‘tkinchi dunyodagi hech narsa, hatto butun boshli podsholikni berilsa-da, u Allah huzuridagi kichik bir bog‘ni afzal biladi:

*Tilab jannatni o‘tmon do ‘st ko ‘yida gadolig ‘din,  
Muhaqqar bog‘ uchun kechmak bo‘lurm u podsholig ‘din.*

Dunyo insonning asl mohiyatni anglashi uchun yaratilgan. Undagi barcha narsaning ibtidosi bo‘lganidek, intihosi ham bor. U bir bevafo va o‘tkinchi matohdil. Buni anglagan gado podsholik saroylarida behuda vaqt o‘tkazgandan ko‘ra, Allah rizosini tilab, uning ko‘yida gadolikni afzal biladi. Navoiyni anglash uchun, Navoiyga murojaat qilish kerak. Yana bir g‘azalida bunday gadolik to‘g‘risida shoir shunday deydi:

*Faqr ko ‘yi tufrog‘in shah mulkiga bermas faqir,  
Mulk ko ‘rkim, teng emas tufrog‘ ila qiymat anga.*

“G‘azzoliy faqr tushunchasining umumiy va o‘ziga xos ma’nolari haqida yozadi: “Bilgilki, faqir deb, o‘zining ixtiyorida va qo‘lida bo‘lmagan narsaga muhtoj kishiga nisbatan aytildi. Insonning eng avvalo, o‘zining mavjudligiga, so‘ng hayotiga, undan keyin yemak-ichmak, kiyim-kechak va shunga o‘xhash narsalarga ehtiyoji borkim, shularning barchasini o‘z ixtiyori bilan tasarruf eta olmas. G‘aniy deb, biror narsaga, o‘zidan boshqa vujudga ehtiyoj sezmaydigan zotga nisbatan aytildikim, butun olamda Haq taolo jalla jalohudan o‘zga hech kim bu qudrat va sifatga sohib emas. Vujud olamida insu jinslardan tortib, farishtalar, pari va jinlar olami - barchaning boqiyligi va mavjudligi Haq taologa bog‘liqdir va barcha mavjudot Haq taologa muhtojdir. Demak, haqiqat yuzasidan barcha mavjudot faqirdirlar” [1, 59-60].

Ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi baytlarda hijron dardi, yordan judo bo‘lgan oshiqning o‘limdan boshqa chorasi yo‘qligi haqida so‘z yuritiladi:

*Firoqing ichra qolg‘och, o ‘lmakimga qilma hayratkim,  
O ‘lumdin o ‘zga ish yo ‘q, jismg‘a jondin judolig ‘din.*

Beshinchi baytda mumtoz adabiyotimizda ko‘p uchraydigan shafqatsiz dunyo obrazi keltirilgan. Shoir bu obrazni yangicha o‘xhatish, majozlar bilan asariga olib kiradi. Quyidagi baytda ham Dunyoga uylanish majozini olib kirgan:

*Jahon sho ‘xinki, el mahbubidir, aqd aylading, lekin  
Taammul qilki, ne lozim kelur bu kadxudolig ‘din.*

Oltinchi baytda Navoiy, mug‘ sharobidan mastona bo‘lib, xilvatdan yorug‘likka chiqishni istaydi:

*Yorut may lam ’asidin xilvativni bir kun ey mug ‘kim,  
Yorug ‘lig ‘ topmadim xilvatda yillar porsolig ‘din.*

“Zuhd” bahsli mavzu bo‘lib, ba’zilar unga “haromdan tiyilish” deb ta’rif berishgan. Bu toifa “ Kim barcha haromdan tiyilsa, u zohiddir”, deb biladi. Ularning dalili Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hasan hadisdir: “Menga Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: “Haromlardan saqlan, insonlarning eng diyonatlisi bo‘lsan”, deb aytdilar”. Yana bir toifa ta’rif berishicha, “zuhd” – insonlardan tiyilish, ularning maqtov va olqishlaridan qochish ma’nosida keladi. Ayrim odamlar yaxshiliklarni maqtov uchun qiladilar. Zuhd insonlar maqtovidan tiyilish, ularning gapiga e’tibor bermay, solih amallarda bardavom bo‘lishdir” [4, 12]. Boshqa bir toifa kishilar “Zohidlar - ibodati evaziga jannat ta’ma qiluvchilar”, deb ham

tushunadilar. Navoiy aynan shu talqindagi kishilar (ya’ni: “ibodati evaziga jannat ta’ma qiluvchilar”) haqida deydi:

*Ko ‘zum andoq qorarmish tiyra zuhd ichraki,  
Demon may tutsa, zahr ichkaymen ani ko ‘z qarolig ‘din.*

Keyingi baytda Navoiyning yana bir go‘zal topilmasini ko‘rishimiz mumkin:

*Bu gulshan g ‘unchasida jola ermaskim tish irjaytib,  
Kular oshufta bulbul navhasig ‘a benavolig ‘din.*

Baytda tongda gul yuziga tushgan shudring oshiqni pisand etmay uning ustidan kulayotgan mashuqaning tishlariga o‘xhatilmoqda.

Maqta’da esa, butun g‘azalning davomi o‘laroq: “benavolik, ya’ni bechoralik, faqirlilikni to‘xtatma, Navoni kimki istasa, uni (ya’ni najotni) benavolikdan topadi”, -- deya g‘azalga nuqta qo‘yadi buyuk shoir:

*Navoiy benavoliq shevasin berma ilikdinkim,  
Navo har kimki istabdur, topibdur benavolig ‘din.*

### ***ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES):***

#### ***Kitoblar***

1. Davlatov O. (2021). *Ma’nolar xazinasi*. -Toshkent: “Tamaddun”.
2. Navoiy A. (1987). *Mukammal asarlar to’plami*. Yigirma tomlik. Birinchi tom. *Badoyi’ ul-bidoya*. 604-g‘azal. –Toshkent: “Fan”.
3. Cho’pon. (1994). *Adabiyot nadir*. –Toshkent: “Cho’pon”.
4. Oiz Qarniy. (2022). *Qalblar tizgini*. – Toshkent: “Azon kitoblari nashriyoti”.